Ortiqov Xayrulla Baxtiyarovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi

KASBIY-PEDAGOGIK KO‘NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.11086209

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya va sport fani o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonini tadqiq etishning metodologik asoslari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, bilim, ko‘nikma, malaka

Jismoniy tarbiya sport sohasidagi mutaxassis o‘z kasbiy faoliyati jarayonida oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishi uchun ma’lum bir malaka, bilim va tajribani talab qiluvchi har xil vazifalarni hal etishi zarur bo‘ladi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning kasbiy faoliyati pedagogik faoliyat hisoblanadi, chunki jismoniy tarbiya va sport ta’rifiga ko‘ra pedagogik bilimlar sohasi sananaladi.

Birinchi bo‘lib e’tibor qaratish lozim bo‘lgan narsa shundan iboratki, jismoniy tarbiya mutaxassisi jismoniy tarbiya sportining ma’lum bir qoidalaridan kelib chiquvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarga asoslangan maxsus ish bilan mashg‘uldir [7].

Bo‘lajak jismoniy tarbiya mutaxassislari, ya’ni pedagogika oliy ta’lim muassasalarining jismoniy madaniyat fakulteti talabalarining kasbiy ko‘nikma o‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik ko‘nikma hisoblanadi.

“Kasbiy ko‘nikma – bu bir qismi avtomatlashtirilishi (ko‘nikmalar) mumkin bo‘lgan, nazariy bilimlarga asoslangan va uyg‘un shaxsni rivojlantirish vazifalarini hal etishga qaratilgan izchil harakatlar yig‘indisidir” [11].

Pedagogik ko‘nikma mohiyatining ushbu tushunchasi bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini shakllantirishda nazariy bilimlarning yetakchi ahamiyati, nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi, pedagogik ko‘nikmalarning ko‘p darajali tavsifi (reproduktivlikdan ijodiylikkacha) va alohida harakatlarni avtomatlashtirish yo‘li bilan ularni takomillashtirish mumkinligini ta’kidlaydi; uning ichki tuzilishi, ya’ni ko‘nikma va mahoratning mustaqil qismi sifatida harakatlarning (mahoratlarning tarkibiy qismlari) o‘zaro asoslangan bog‘liqligini tushunishga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, turli asoslar bo‘yicha ko‘p pedagogik mahoratlarni biriktirishga ham, ularni amaliy maqsadlarda shartli ajratishga ham imkon yaratadi.

Adabiyotlarda “malaka” va “ko‘nikma” tushunchalari hamda ularning shakllanish yo‘li va baholash usullariga turlicha qarashlar mavjudligi aniqlandi.

Qarashlarning farqi malakani ko‘nikmaga nisbatan va aksincha, ko‘nikmani malakaga nisbatan shakllanishining birlamchi yoki ikkilamchiligida ifodalanadi. Ba’zi mualliflar malaka ko‘nikmaga nisbatan birlamchi deb hisoblashadi va malakaga ko‘nikmaning tarkibiy qismi deb qarashadi. Shunday qilib “ko‘nikma”ga mashqlarni takrorlash va “malakani” takomillashtirish jarayonida ega bo‘linadi. “Malaka to‘liq tugallanmagan ko‘nikma, ko‘nikmaning o‘zi esa deyarli tugallangan malakadir” [7].

Malakani ko‘nikmaga nisbatan ikkilamchiligi pozitsiyasining tarafdorlari yuqoridagi fikrga qo‘shilmaydilar. Ularning dalillari quyidagilardir: ushbu ta’rif “malaka” tushunchasini bekor qilib, uni ko‘nikmaning shakllanish bosqichlaridan biri – “to‘liq tugallanmagan ko‘nikma” tushunchasi bilan almashtiradi. Bunday bo‘lishi mumkin emas, chunki, agar “malaka” to‘liq tugallanmagan ko‘nikma hisoblansa, “va tipik tur sifatida, mashq uni avtomatlashtirilgan ko‘nikmaga aylantirmagunicha mavjud bo‘ladi, demak, malaka – o‘rgatish va mashq natijasida avtomatlashtirish tufayli izsiz o‘tadigan vaqtinchalik hodisaning

o‘zidir va sub’ektda ko‘nikmalardan yaxshiroq bo‘lgan “erishilgan” malakalar emas, faqatgina ko‘nikmalar saqlanib qolinadi”[8].

Afsuski, bu ikki nuqtai nazar tarafdorlari, ushbu tushunchalar orasidagi bog‘liqlikni noto‘g‘ri anglash – ko‘nikma va malakaning shakllanish jarayonida qanday ijobiy yoki salbiy amaliy oqibatlarga olib kelishini aniqlab bera olmaganlar. “Malaka” va “ko‘nikma” atamalari yanada aniqroq tavsiflansa, birinchi va ikkinchi nuqtai nazar orasidagi ziddiyatlarni oson bartaraf etish uchun, bizning fikrimizcha, uchinchi nuqtai nazar yordamida erishish mumkin. Agar amaliy misollarga ahamiyat bersak, endigina suzishni o‘rgangan odam uchun “qayta egallangan yoki boshlang‘ich malaka” yoki velosipedda uchish uchun bu individuumda hali boshqa ko‘nikmalar yo‘q degan atamadan aniqrog‘ini topishning imkoni yo‘qdek tuyuladi. Ammo, bu odam ushbu ko‘nikmalarni umuman egallamagan hamda bu ko‘nikmalar suzish yoki velosport ustasi ko‘nikmalaridan ancha farq qiladi, deb aytish ham mumkin emas.

Ko‘nikmalarning xususiyatlarini ko‘rib chiqqan holda “ko‘nikmani ko‘chirish” nomi bilan mashhur bo‘lgan hodisani ta’kidlash zarur. “Ta’lim berish avvalgi o‘rganilgan, yaxshi o‘zlashtirilgan materialga tayansagina, yangi material tezroq va mustahkamroq esda qoladi. “Ma’lumdan noma’lumgacha” didaktik qoidasi ta’lim berish jarayonida inson yangi harakatlarni shakllantirishda to‘plangan bilim, malaka, ko‘nikmalardan foydalanish qobiliyatiga ega ekanligini hisobga olishni talab etadi [3]. Pedagogik malaka va ko‘nikmalar umummehnat ko‘nikma va mahoratlarining bir qismini tashkil etadi. Malaka va malakalarning bu guruhi intellektual guruhlarga kiradi va pedagogik faoliyat xususiyatlari va tavsifi bilan bog‘langan o‘z xususiyatlariga ega. Bu quyidagi ta’riflarda o‘z aksini topgan. “Pedagogik ko‘nikma – bu psixologik va pedagogik va uslubiy belgilardan ongli foydalanishga asoslangan o‘qitish va tarbiyalashning vosita va usullarini egallashdir” [10].

“Pedagogik ko‘nikma – bu nafaqat o‘qituvchining kasbiy vazifalarini bajarishning belgilangan ko‘nikma va pedagogik amaliy harakatlarni egallashning ijodiy mahoratiga qaratilgan psixik va amaliy harakatlar yig‘indisining murakkab dinamikasini egallash, balki uning yuqori mahorati darajasini ta’minlovchi nazariy bilimlar sintezidir” [9]. Pedagogik malaka tuzilishini tadqiqotchilar vazifalari aniq tizimning yechimi sifatida ko‘rib chiqishadi.

Ular taktik yoki strategik tavsifga ega. B.G.Ananev xulq-atvorning strategik holatiga katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, bu holat shaxs tuzilishini tavsiflovchi barcha qurilmalar, motivlar, intellekt, irodani o‘z ichiga oladi hamda shaxsni va uning jamiyatdagi vazifalarini yanada to‘liq amalga oshishiga imkon beradi [2].

S.I.Kiselgof [4] avvalgi pedagogik faoliyat tuzilishini ochib beruvchi uslubiy va psixologik hamda pedagogik tadqiqotlarning natijalari hamda pedagogik amaliyot tahliliga tayangan holda pedagogik faoliyat son-sanoqsiz pedagogik vazifalarning tizimi sifatida ko‘rsatilishi mumkin, deb hisoblaydi. Ularni hal etish qobiliyati, xususan, kasbiy malaka va ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasiga bog‘liq, ya’ni pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o‘qituvchi ushbu vazifalarnining yechimini mohirona topishga imkon beruvchi maxsus malakalarning belgilangan yig‘indisini egallagan bo‘lishi zarur. Mana shunday pedagogik malakalarning tizimi qaysidir jihatdan talabalarda maktabda mustaqil ish boshlashdan avval shakllanishi lozim.

Zamonaviy bosqichda pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri pedagoglarning kasbiy malakalarini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish hisoblanadi [11]. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida bilim, malaka va ko‘nikmalarning asoslari yaratiladi. Talabalarni kasbiy malakalar bilan qurollantirish, malakasini shakllantirish pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [7]. Ammo, hozirgi vaqtgacha talabalarda peda-

gogika OTMlarida ta'lim olish davrida shakllantirilishi zarur bo'lgan kasbiy ko'nikmalarini mazmuni va hajmi, shart-sharoiti aniqlanmagan va ularni shakllantirish usullari ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ham kasbiy ko'nikmalar nomenklaturasini aniqlash, ularning har birining mazmuni va shakllantirish usullarini izlab topish tadqiqot ishining doimiy dolzarbligini belgilab beradi [1].

Kasbiy ko'nikmalarga o'quvchilarni o'rganish, o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish; o'quv jarayonini tashkil etish va o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish; maktabda tarbiya jarayonini tashkil etish va bolalarning o'zini-o'zi tarbiyalashini boshqarish; aholi va ota-onalar orasida jamoaviy pedagogik ish olib borish; o'zining pedagogik tajribasi hamda boshqa o'qituvchilarning tajribasini umumlashtirish bo'yicha malakalar kiradi.

Kasbiy ko'nikmaning aniq mazmuni va hajmi, faqatgina ularning amaliy qo'llanishini hisobga olgan holda aniqlanishi mumkin, negaki istalgan malaka nafaqat faoliyatning ob'ekti va usullari haqidagi bilimlarning potensial zaxirasini, balki ularning amalga oshirilishini, ya'ni aniq harakatlar majmuasini o'zida namoyon qiladi. U yoki bu amaliy vazifani muvaffaqiyatli yechish uchun o'qituvchi-tarbiyachi kerakli miqdordagi operatsiyalarni belgilangan ketma-ketlikda bajarishi kerak bo'ladi.

N.V.Kuzmina [5], turli darajada ish stajiga ega bo'lgan o'qituvchilar ish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini qiyoslab, shunday xulosaga keladiki, konstruktiv, kommunikativ va tashkilotchilik xususiyatlarining va ularga mos keluvchi ko'nikmalarning mavjudligi o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Konstruktiv ko'nikmalar asosiy va ko'p qirrali guruhlardan birini tashkil etadi. Ular loyihalashtirishi, gnostik va shaxsiy-konstruktiv ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda turli guruhlarning yuzga yaqin kasbiy-pedagogik ko'nikmalari ajratilgan [5]. N.V.Kuzmina [6], pedagogik ko'nikmalarni egallash darajasini tahlil qilish va taqqoslash uchun ko'nikmalar shakllanganligining quyidagi darajalarga ajratadi:

1) Boshlang'ich ko'nikma (inson shu faoliyat turining mazmunini biladi va zarur bo'lganda ko'p yoki kam aniqlikda unga taklif qilingan harakatlarning belgilangan ketma-ketligi yoki tizimini tajribali ustozning yordamida qayta ishlab chiqishi mumkin);

2) Past daraja (o'xshash vaziyatda inson unga ma'lum bo'lgan zarur harakatlarning ketma-ketligini mustaqil bajaradi, lekin u bilan "cheklangan", ko'chirish mumkin emas);

3) O'rta daraja (o'xshash vaziyatda inson unga ma'lum bo'lgan harakatlarni erkin o'zgartiradi, lekin ularni boshqa ish turlariga qiyinchilik bilan ko'chiradi);

4) Yuqori daraja (turli vaziyatlarda harakatlarning zarur tizimini mustaqil tanlash, lekin inson tomonidan ko'rsatilgan katta kuch bilan; faoliyatning ba'zi chegaralangan sohasi ichida ko'chirishning mavjudligi);

5) To'liq ko'nikma (harakatlarning turli tizimlarini erkin egallash, ularni faoliyatning boshqa turlariga hech qanday qiyinchiliksiz keng ko'chirish; faoliyatni bajarishning yengilligi) [7].

Kasbiy ko'nikmalar mustaqil ko'p yillik pedagogik faoliyat jarayonida to'liq hajmda paydo bo'ladi. Amaliyot davrida talabaning faoliyati cheklangan, amaliyot asosan o'qituvchi va uslubchilarning boshchiligi ostida o'tadi.

Shu munosabat bilan O.A.Abdulina [1] quyidagi savolni qo'yadi: pedagogika OTMda o'qish davrida hamda OTMni tugatgandan so'ng mustaqil pedagogik faoliyat jarayonida talabalar qanday ko'nikmalarni egallashi qanday aniqlanadi?

Ikki guruh – o'qituvchilar va yuqori bosqich talabalarining kasbiy ko'nikmalarni egallash darajasini o'rganish aniq amaliy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Avvalo, OTMda ta'lim olish jarayonida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish kerak.

V.A.Solodyannikov [12] jismoniy tarbiya va sport o‘qituvchisining kasbiy ahamiyatga molik ko‘nikmalari tarkibi haqida olib borilgan tadqiqoti asosida ularning birmuncha kam miqdorini ko‘rsatib berdi. Uning fikricha, ushbu kasbiy-pedagogik ko‘nikmalar (KPK) birgalikda ta’lim faoliyatining asosiy turlarini ta’minlovchi kasbiy harakatlarni hosil qiladi. Bu ko‘nikmalarning universalligi shundan iboratki, ular u yoki bu pedagogik masalalarni hal etish uchun ko‘nikmalarning asosi va elementar tashkil etuvchisi hisoblanadi hamda KPKning bazasi, deb atalishi mumkin. Ko‘nikmalarni ahamiyati bo‘yicha taqsimlash (1-3 o‘rin) ularning tarkibini aniqlashga imkon berdi: o‘qitish mobaynida (harakatlarga o‘rgatish jarayonida shug‘ullanuvchilarda mahorat, ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish) – mashqlarni ko‘rsatish, harakatlar texnikasini tushuntirish, xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash; o‘qitish faoliyatini loyihalash va tuzishda (konstruksiyalashda) – o‘qitish dasturini va mashg‘ulot konspektini tuzishni amalga oshirish; o‘quv vazifalarini bajarish bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishda – shug‘ullanuvchilarni uyushtirish, shug‘ullanuvchilar oldida bo‘lish, mashqlarni o‘tkazish, buyruq berish usullarini egallash.

Har bir ko‘nikma turi o‘zining intellektual va amaliy harakatlar tuzilishiga ega va ularni qo‘llash uchun muvofiq psixologik va pedagogik hamda maxsus bilimlarni talab qiladi [6].

Kasbiy ko‘nikmalarning shakllanishi – bu talabalarning OTMda butun o‘qish davri davomida kechadigan murakkab, ko‘p qirrali va yetarlicha uzoq jarayondir. U o‘quv ishlarining har xil turlari davomida amalga oshadi: pedagogika va psixologiya, fanni o‘qitish uslubiyati bo‘yicha ma’ruza, seminar va laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlari. Bunda pedagogik amaliyot eng muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy ko‘nikma pedagogik hodisalarning mazmun-mohiyati haqidagi bilimlarga qanday tayansa, pedagogik jarayonni tashkil etish uslubiyati va harakat usullari bilimlariga xuddi shunday tayanadi. Masalan, ko‘nikmani egallash, darsni rejalashtirish uchun o‘qitish jarayoni, o‘qitishning tamoyillari va uslubiyati, darsning nazariyasi va uni rejalashtirish bo‘yicha bajariladigan ishlarning mazmun-mohiyatini bilish zarur. Tarbiyaviy ishni rajalashtirish ko‘nikmasini egallash uchun tarbiya nazariyasi, rejalashtirish tamoyillari va uslubiyati, shuningdek, o‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish bo‘yicha bajariladigan ishlar va harakatlarni bilish talab qilinadi.

Shuning uchun ham pedagogik amaliyot jarayonida talabalarda pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish, birinchidan, ularga o‘z amaliy faoliyatlarida psixologik va pedagogik nazariyani qo‘llash ko‘nikma o‘rgatish, ikkinchidan – ularni u yoki bu pedagogik ko‘nikmalar mazmunini tashkil etadigan aniq harakatlar bilan qurollantirishni talab qiladi. Insonning o‘z oldida turgan vazifalaridan kelib chiqib, tarbiyalanuvchilarga yanada samarali ta’sir o‘tkazish uchun o‘z bilim va ko‘nikmalaridan maqsadga yo‘naltirilgan tarzda foydalanish imkoniyati tarbiyaviy ishlar ko‘nikmasining asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего образования: Уч. пособие для спец. высших уч. заведений. — М.: Просвещение, 1990.— 140-144с.

2. Алексеенко О.И., Даниленко Т. В., Кирий Е. В. Проблемы обучения и воспитания студентов в современном вузе. // Современное педагогическое образование. №3. -2018. - С.3-4.

3. Ананьев Б.Г. Психофизиология студенческого возраста и усвоение знаний. // Вестник высшей школы. - 1972. - №7. — С. 17-26

4. Боген М.М. Обучение двигательным действиям. - М.: Физическая культура и спорт. 1985. - 192с.

5 Кузьмина Н.В. Профессионализм

личности преподавателя и мастера производственного обучения. - М., 1990. - 117с.

6. Кузьмина Н.В. Формирование основ профессионального мастерства в высшей школе. - Л.: ЛГУ, 1973. - С. 73.

7. Лавицкая, Е. С. Особенности формирования профессиональной компетентности студентов физкультурного профиля на занятиях по спортивным играм / Е. С. Лавицкая. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 11 (91). — С. 600-604.

8. Масягина Н.В. Особенности труда специалистов физической культуры и спорта, как ориентир модернизации системы подготовки и переподготовки кадров для физкультурно-спортивной отрасли // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 6. –45-47 б

9. Рыков Н.А. К вопросу об образовании умения // Сов. педагогика. - 1953.- №10.-С.43.

10. Сластенин В.А., Каширин В. П. Психология и педагогика: Учебное пособие. - М.: Изд. центр «Академия», 2007.- 480с.

11. Ходжава З.И. К вопросу о понятии умения в советской психологии. - 1955. - №3. -СП.

12. Щербаков А.И. Психолого-педагогическая подготовка учителя-воспитателя и пути её оптимизации в высшей школе. //Проблемы совершенствования системы психологичекой подготовки учителя. –Л.1980, - С.3-46.